

KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergasheva Nigora Abdigapparovna

Namangan davlat texnika universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: ergashevarogin095@gmail.com

Tel: +998 99 699 29 20

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik sanoat zonalari faoliyatini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritildi. Tadqiqotchi kichik sanoat zonalarining hududiy ishlab chiqarishni jonlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mahalliy tadbirkorlikni mustahkamlashdagi o'rnini asosladi. O'zbekistonda 2019-2023-yillarda qayd etilgan rasmiy statistik ko'rsatkichlar orqali zonalar soni, ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyatining barqaror kengayishi ochib berildi. Investitsiya oqimlari va tarmoq ixtisoslashuvi bo'yicha ijobiy o'zgarishlar aniqlandi. Takomillashtirishning tarmoqli ixtisoslashuv, infratuzilma yangilanishi, raqamli boshqaruv va eksportni rag'batlantirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslandi. Olingan xulosalar zonalarni boshqarish samaradorligini oshirishga va hududlar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilishi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: kichik sanoat zonasi, hududiy iqtisodiyot, investitsiya, tarmoqli ixtisoslashuv, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik, tadbirkorlik.

Аннотация. В статье изложены теоретические и практические основы совершенствования деятельности малых промышленных зон. Исследователь обосновал роль малых промышленных зон в оживлении регионального производства, создании новых рабочих мест и укреплении местного предпринимательства. На основе официальных статистических показателей, зафиксированных в Узбекистане в 2019-2023 годах, было раскрыто устойчивое расширение числа зон, объема производства и экспортного потенциала. Были выявлены положительные изменения в инвестиционных потоках и отраслевой специализации. Научно обоснованы направления совершенствования: отраслевая специализация, обновление инфраструктуры, цифровое управление и стимулирование экспорта. Полученные выводы показали, что они служат повышению эффективности управления зонами и укреплению конкурентоспособности регионов.

Ключевые слова: малая промышленная зона, региональная экономика, инвестиции, отраслевая специализация, экспортный потенциал, конкурентоспособность, предпринимательство.

Annotation. This article set out the theoretical and practical foundations for improving the performance of small industrial zones. The researcher substantiated the role of small industrial zones in revitalizing regional production, creating new jobs, and strengthening local entrepreneurship. Drawing on official statistical indicators recorded in Uzbekistan during 2019-2023, the study revealed a steady expansion in the number of zones, output volume, and export capacity. Positive shifts in investment flows and sectoral specialization were identified. The directions

for improvement - sectoral specialization, infrastructure renewal, digital management, and export promotion - were scientifically justified. The findings demonstrated that these measures serve to raise management efficiency and reinforce regional competitiveness.

Keywords: small industrial zone, regional economy, investment, sectoral specialization, export capacity, competitiveness, entrepreneurship.

Kirish. Kichik sanoat zonalari O'zbekistonning hududiy rivojlanish siyosatida amaliy ustuvorlik kasb etgan yo'nalishga aylandi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida hududlarda yangi sanoat zonalarini tashkil etish hamda xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish vazifasi belgilab qo'yildi [1]. Ushbu vazifaning huquqiy negizi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 134-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda mustahkamlangan; unga muvofiq zona ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaga ega va chegaralari aniq belgilangan hudud sifatida talqin qilinadi [2].

Amaliy nuqtai nazardan bunday maydonlar tadbirkorga tayyor muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, yer uchastkasi va imtiyozli shartlarni taqdim etib, loyihani ishga tushirish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Tarmoqning ko'lami izchil kengaymoqda: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-iyul holatiga maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar ishtirokchilari soni 7 513 taga yetdi [3].

Zonalar tarmog'ining kengayishi ularning faoliyat samaradorligini oshirishni amaliy jihatdan birinchi o'ringa qo'ydi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil 1-oktabr holatiga respublikada 404 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritib, ular tarkibida 3 188 ta korxona jamlandi [4]. Infratuzilmani yangilash, investitsiya oqimlarini barqarorlashtirish, tarmoqli ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va boshqaruvni raqamlashtirish orqali zonalarining hududiy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini yanada kuchaytirish mumkin. Maqolaning maqsadi - rasmiy statistik ko'rsatkichlarga tayangan holda kichik sanoat zonalari faoliyatini takomillashtirishning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tadqiqotlarda investitsiyaning yetakchi omil sifatidagi roli ajratib ko'rsatiladi. Petrovic, Arsic va Nojkovic Yevropa iqtisodiyotlari misolida davlat investitsiyalari iqtisodiy pasayish davrida ishlab chiqarish faolligini tiklashning eng ta'sirchan vositasi ekanligini empirik asosladi [5]. Ushbu qonuniyat kichik sanoat zonalari uchun ham amal qiladi, chunki ular investitsiya hisobiga qisqa muddatda ishlab chiqarish quvvatlarini ishga soladi.

Milliy adabiyotlarda zonalarining modernizatsiya va hududiy rivojlanishdagi o'rni o'rganilgan. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kichik sanoat zonalariga jalb etish imkoniyatlari alohida yo'nalish sifatida ko'rib chiqilgan [6]. Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa zonalarining hududiy rivojlanishga ta'siri va o'zlashtirilgan investitsiyalar hisobiga erishilgan natijalar baholangan [7].

Zonalarning joriy holatini baholovchi ishlarda ular sonining tez oʻsishi hamda tarmoq boʻyicha notekis taqsimlanishi qayd etiladi. Bunday ilmiy manbalar kichik sanoat zonalarini faoliyatini takomillashtirish uchun mustahkam empirik asos yaratadi va ularni miqdoriy baholash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiya. Tadqiqot rasmiy ochiq manbalarga tayangan holda olib borildi. Huquqiy asos sifatida Oʻzbekiston Respublikasining normativ hujjatlari - “Oʻzbekiston - 2030” strategiyasi [1] va kichik sanoat zonalarini toʻgʻrisidagi nizom [2] oʻrganildi. Miqdoriy baholash uchun Milliy statistika qoʻmitasining ochiq maʼlumotlari [3] hamda ularga asoslangan ilmiy tahliliy manba [4] tanlab olindi.

Ishda statistik-tahliliy, qiyosiy va tarkibiy-dinamik usullar qoʻllanildi. Zonalar faoliyati 2019-2023-yillar oraligʻidagi moliyaviy koʻrsatkichlar dinamikasi boʻyicha baholandi; tarmoqli taqsimot esa faoliyat turlari kesimidagi ishlab chiqarish ulushlari orqali oʻrganildi. Barcha raqamli maʼlumotlar faqat tasdiqlangan rasmiy manbalardan olindi; taxminiy yoki isbotlanmagan koʻrsatkichlardan foydalanilmadi.

Tahlil va natijalar. Kichik sanoat zonalarining oʻsishi umummilliy sanoat rivoji bilan uygʻun kechdi. 2023-yilda respublikada oʻzlashtirilgan investitsiyalarning 53,3 foizi sanoatni rivojlantirish va modernizatsiya qilishga yoʻnaltirilib, import oʻrnini bosuvchi hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qildi [8]. Bunday qulay makroiqtisodiy zamin zonalar faoliyatining barqaror kengayishini qoʻllab-quvvatladi. Zonalarning moliyaviy-iqtisodiy koʻrsatkichlari soʻnggi besh yilda ishonchli oʻsish tendensiyasini namoyon etdi (1-jadval).

1-jadval

**Kichik sanoat zonalarining asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari,
2019-2023-yillar¹¹⁷**

Koʻrsatkich	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Kichik sanoat zonalar soni	63	77	114	317	328
Tarkibidagi korxonalar soni	1 317	1 675	1 869	2 796	2 494
Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd soʻm	2 516,5	2 694,2	3 964,4	6 358,3	9 505,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd soʻm	414,9	304,6	219,3	1 663,6	1 038,6
Xizmatlar eksporti, mlrd soʻm	497,6	717,5	1 000,3	1 273,7	1 929,1
Foyda soligʻiga qadar foyda, mlrd soʻm	202,5	249,7	258,0	372,8	639,3
Kreditor qarzdorlik, mlrd soʻm	728,3	918,3	1 126,3	1 302,4	2 518,6

1-jadval maʼlumotlari zonalar sonining 2019-yildagi 63 tadan 2023-yilda 328 taga oʻsganini koʻrsatadi [4]. Ushbu kengayish hududlarda ishlab chiqarish maydonlariga boʻlgan qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi. Sanoat mahsulotlari hajmi ayni davrda 2 516,5 mlrd soʻmdan 9 505,6 mlrd soʻmgacha, yaʼni deyarli toʻrt baravar koʻpaydi. Ishlab chiqarishning izchil kengayishi zonalar iqtisodiy salohiyatining mustahkamlanayotganini tasdiqlaydi.

¹¹⁷ Manba: rasmiy statistik maʼlumotlar asosida [4] jamlangan.

Eksport ko'rsatkichlari ijobiy dinamikani namoyon etdi: xizmatlar eksporti 497,6 mlrd so'mdan 1 929,1 mlrd so'mga ko'tarildi [4]. Zonalar korxonalarining tashqi bozorlardagi mavqeyi mustahkamlanib bordi. Foyda solig'iga qadar shakllangan foyda esa 202,5 mlrd so'mdan 639,3 mlrd so'mga o'sib, faoliyat rentabelligining ortayotganini ko'rsatdi.

Investitsiya oqimlari o'zgaruvchan xususiyat kasb etdi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar 2022-yilda 1 663,6 mlrd so'mlik yuqori darajaga chiqqan bo'lsa-da, 2023-yilda 1 038,6 mlrd so'mgacha o'zgardi [4]. Kreditor qarzdorlikning 728,3 mlrd so'mdan 2 518,6 mlrd so'mga ortishi moliyaviy majburiyatlarni puxta boshqarish yo'nalishida qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu o'zgaruvchanlik investitsiyani rejalashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish zaruriyatini oldinga surdi.

Zonalar tarmog'i 2023-yildan keyin ham kengayishda davom etdi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, kichik sanoat zonalar soni 2024-yil 1-iyul holatiga 400 taga, ular tarkibidagi korxonalar soni esa 3 069 taga yetdi [3]. 2024-yil 1-oktabrga kelib zonalar soni 404 taga, korxonalar soni 3 188 taga ko'tarildi [4]. 2025-yil 1-iyul holatida kichik sanoat zonalar ishtirokchilari soni 3 109 tani tashkil etib, maxsus iqtisodiy zonalar, texnoparklar va klasterlar bilan birgalikda umumiy ishtirokchilar soni 7 513 taga yetdi [3]. Ushbu ko'rsatkichlar zonalar tarmog'ining barqaror kengayishda davom etayotganini tasdiqladi (2-jadval).

2-jadval

Kichik sanoat zonalar va ular tarkibidagi korxonalar soni dinamikasi, 2023-2025-yillar¹¹⁸


Holat sanasi	KSZ soni	Tarkibidagi korxonalar soni
2023-yil yakuni	328	2 494
2024-yil 1-iyul	400	3 069
2024-yil 1-oktabr	404	3 188
2025-yil 1-iyul	-	3 109

Tarmoqli baholash zonalarining ixtisoslashuv salohiyatini ochib berdi. Kompyuter, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarishda kichik sanoat zonalarining umumiy sanoatdagi ulushi 13,1 foizni tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichga erishdi; qog'oz mahsulotlari hamda rezina va plastmassa buyumlarida ham ulush nisbatan salmoqli bo'ldi [4]. Ushbu tarmoqlar kichik korxonalar uchun eng samarali yo'nalish sifatida namoyon bo'ldi. Oziq-ovqat, kimyo va to'qimachilik kabi yirik korxonalar ustunlik qiladigan tarmoqlarda zonalarining ulushi pastroq bo'lib, ixtisoslashuvni chuqurlashtirish orqali o'sish zaxirasi mavjudligini ko'rsatdi.

Olingan natijalar kichik sanoat zonalar faoliyatini takomillashtirishning o'zaro bog'liq yo'nalishlarini yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish imkonini berdi (1-rasm). Infratuzilmani yangilash, investitsiyani barqarorlashtirish, tarmoqli ixtisoslashuv, raqamli boshqaruv va eksportni rag'batlantirish zona orqali ishlab

¹¹⁸ Manba: rasmiy statistik ma'lumotlar [3] va tahliliy manba [4] asosida jamlangan.

chiqarish hajmi, yangi ish o‘rinlari, eksport salohiyati va hudud raqobatbardoshligining o‘shishiga olib keladi.



1-rasm. Kichik sanoat zonalari faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlari va iqtisodiy natijalari¹¹⁹.

Xulosa. O‘tkazilgan baholash kichik sanoat zonalari O‘zbekiston hududiy iqtisodiyotining barqaror o‘shish omiliga aylanganini tasdiqladi. Zonalar soni, ishlab chiqarish hajmi, eksport va foyda ko‘rsatkichlaridagi ijobiy dinamika ularning mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi salmoqli hissasini ko‘rsatdi. Faoliyatni yanada takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlar orqali ta‘minlanishi mumkin:

- Investitsiyani barqarorlashtirish - imtiyozli kreditlash va uzoq muddatli investitsiya dasturlari orqali kapital oqimidagi o‘zgaruvchanlikni kamaytirish.
- Tarmoqli ixtisoslashuv - kompyuter, elektron, qog‘oz va plastmassa buyumlari kabi yuqori samarali tarmoqlarda korxonalar ulushini oshirish.
- Infratuzilmani rivojlantirish - muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yangilash orqali yangi korxonalar uchun qulay shart-sharoit yaratish.
- Raqamli boshqaruv - zonalarini boshqarishga elektron xizmatlar va monitoring tizimlarini joriy etish orqali shaffoflik va tezkorlikni oshirish.
- Eksportni rag‘batlantirish - sertifikatlashtirish, logistika va marketing dasturlari vositasida tashqi bozorga chiqishni kengaytirish.
- Moliyaviy boshqaruv - korxonalar uchun maslahat xizmatlari va treninglar orqali qarzdorlikni oqilona boshqarishni yo‘lga qo‘yish.

Taklif etilgan yo‘nalishlarning uyg‘un tarzda amalga oshirilishi kichik sanoat zonalarini boshqarish samaradorligini oshiradi va hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Bunday yondashuv zonalarini O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh bo‘g‘iniga aylantirishga xizmat qiladi.

¹¹⁹ Muallif ishlanmasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-fevral 2026-yil PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-mart 134-son "Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/4758585>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ), kichik sanoat zonalar (KSZ), texnoparklar va klasterlar ishtirokchilari soni. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/63922-makhsus-i-tisodij-zonalar-miz-kichik-sanoat-zonalar-ksz-tehnoparklar-va-klasterlar-ishtirokchilari-soni-2>
4. Farmonov D.D. Kichik sanoat zonalarini rivojlanishining hozirgi holati // International Journal of Science and Technology. 2025. Vol. 02, Issue 05. - B. 129-132. <https://science-technology.uz/index.php/journal/article/download/307/264/527>
5. Petrovic P., Arsic M., Nojkovic A. Increasing public investment can be an effective policy in bad times: Evidence from emerging EU economies // Economic Modelling. 2020. <https://doi.org/10.1016/j.econmod.2020.02.004>
6. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik sanoat zonalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yo'naltirish imkoniyatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/48577>
7. Raqamli iqtisodiyotda kichik sanoat zonalarining hududiy rivojlanishi // Modern Science and Research. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28190>
8. O'zbekiston iqtisodiyoti raqamlarda // O'zbekiston Respublikasining Malayziyadagi elchixonasi. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/ozbekiston_iqtisodiyoti_raqamlarda.html